

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING XULQ ATVORIGA IJTIMOYIY MUXITNING TASIRI

Turumbetova Zamira

QDU San'atshunoslik fakulteti «Pedagogika va psixologiya» kafedrası v.v.b.docent.

Abdiraxmanova Dinara

QDU San'atshunoslik fakulteti «Pedagogika va psixologiya» kafedrası 4 kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11083575>

Annotatsiya. Bu maqola, maktabgacha yoshdagi bolalarning xulq atvoriga, jamiyat bilan o'zaro munosabatlarga va ijtimoiy muxitning roli va tasiriga oid. Mavzuni o'rganish uchun ilmfan adabiyotlari, so'zlar va hujjatlar ishlatilib, bolalar va ijtimoiy muxitlar o'rtasidagi munosabatlarni ta'kidlash uchun psixologik va jamiyatiy tahlil qiladi. Maqola, xulq atvori va ijtimoiy muxitning bir-biriga o'zaro ta'siri, bolalar va ota-onalar munosabatlari, shuningdek, bolalar o'rtasida munosabatlar va o'zlarini ifodalashlari ustida o'rgatuvchilar uchun qo'llanilgan amaliy maslahatlarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: psixologiya, xulq atvor, xarakter, tasir qilish, psixologik tahlil, ong, muloqot, motiv.

INFLUENCE OF THE SOCIAL ENVIRONMENT ON THE BEHAVIOR OF PRESCHOOL CHILDREN

Abstract. This article is about preschool children's behavior, interactions with society, and the role and influence of the social environment. Uses scientific literature, words and documents to study the topic, and makes a psychological and social analysis to emphasize the relationship between children and social environments. contains practical advice for educators on child-parent relationships, as well as child relationships and self-expression. As a result, social environments, relationships between children and parents become important in ensuring the improvement of the social environment in preschool educational organizations. Development of preschool children in relation to the outside world and social environment, expressing their opinions and how they learn their place in society, as well as the development of children's relationships and communication are also important guidelines. Based on this analysis, children's motivations, social experiences, psychological processes and their personal development, practical advice and recommendations are also presented.

Key words: psychology, behavior, character, influence, psychological analysis, consciousness, communication, motive

ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЫ НА ПОВЕДЕНИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНИКА

Аннотация. В данной статье речь идет о поведении детей дошкольного возраста, взаимодействии с обществом, а также о роли и влиянии социальной среды. Использует научную литературу, слова и документы для изучения темы, проводит психологический и социальный анализ, подчеркивая взаимоотношения детей и социальной среды, содержит практические советы для воспитателей по детско-родительским отношениям, а также детским отношениям и самовыражению.

Ключевые слова: психология, поведение, характер, влияние, психологический анализ, сознание, общение, мотив.

Maktabgacha yoshdagi bolalar, ularning xulq atvorlari va ijtimoiy muxitlar bilan munosabatlari, ularni o'zlarini ifodalash, o'z fikrlarini bayon etish, va jamiyatdagi o'zlarining o'rinini qanday o'rganishlari, psixologik tahlili va amaliy maslahatlarga ega bo'lishi mumkin.

Bolalar psixologiyasi inson ongining bolalik chog'idan boshlab qanday o'zgarishi, o'sishini va buning sabablarini ochib berish bilan, murakkab psixik jarayonlarning asl tabiatini to'g'ri tushunishga yordam beradi. Ontogenezda 3 dan 7 yoshgacha bo'lgan davr bog'cha yoshi davri yoki maktabgacha yosh davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez suratta o'zgarishlari bo'lishini inobatga olgan holda 3 davrga: (3—4 yosh) kichik maktabgacha davr, (kichik bog'cha yoshi), (4—5 yosh) o'rta maktabgacha davr, (o'rta bog'cha yoshi), (6—7 yosh) katta maktabgacha davr (katta bog'cha yoshi)ga ajratish mumkin. Bola rivojlanish jarayonida kishilik avlodi tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo'lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o'zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-haraka tlarini, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog'i kerak. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi.

Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning bog'cha yoshidagi davr shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi. Bog'cha yoshidagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlidchanligidi. Kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan munosabat orqali bola axloq me'yorlari, kishilarni anglashi, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bog'cha yoshidagi bola endi o'z gavdasini yaxshi boshqara oladi. Uning harakati muvofiqlashtirilgan holda bo'ladi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlana boshlaydi, u yangiliklarni egallashga nisbatan o'z bilganlarini mustahkamlashga ehtiyoj sezadi, o'zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik, shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir.

Bog'cha yoshidagi bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. 3—7 yoshli davrida bolalarning asosiy faoliyati quyidagi ketma-ketlikda kechadi: predmetlari o'rganishi; Individual predmetli o'yinlar, jamoa sujetli-rolli o'yinlar; Individual va guruhij ijod; musobaqa o'yinlari; muloqot o'yinlari;— uy mehnati. Bog'cha yoshidagi bolalar nutqni birmuncha to'la o'zlashtirishi va haddan tashqari harakatchanliklari tufayli ularda o'zlariga yaqin bo'lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo'lish ehtiyoji tug'iladi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Ular endi bog'chadagi do'stlari va qo'ni-qo'shnilarning bolalari bilan ham jamoa bo'lib o'ynashga harakat qiladilar. Hamma narsani bilib olishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Bog'cha yoshidagi bola tabiatiga xos bo'lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri, uning har narsani yangilik sifatida ko'rib, uni har tomonlama bilib olishga intilishidir. Bog'cha yoshidagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatdan o'sishida qiziqishning roli kattadir, qiziqish xuddi ehtiyoj kabi, bolani biror faoliyatga undovchi omillardan biridir.

Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixik hodisa desa bo'ladi. Bolaning kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishga intiladi va uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu esa o'z navbatida bolaning diqqati hamda Irodasi kabi muhim xislatlarni o'stirishga va mustahkamlashiga yordam beradi. 3—7 yoshli bolalarning psixik

rivojlanishida badiiy ijodiy faoliyat turi bo'lgan musiqaning ahamiyati ham juda kattadir. Musiqa orqali bolalar ashula aytishga, musiqa ohangiga mos ritmik harakatlar qilishga o'rganadilar.

Bolaga eng avvalo o'z oilasi katta tasir o'tkazadi, ijtimoiy muhitning bolaga tasiri oilada qanday ruhda tarbiyalanganligiga bog'liq. Agar bola oilada mexir ko'rmay o'ssa o'zini hech kimga kerakmasday xis qilsa bog'cha yoshiga yetganda bolalarga qo'shilishi ham qiyin bo'ladi, bola turli qo'rquv hissiyotlari bilan ularga qo'shiladi. Biroq negadir uni hech kim yoqtirmaydi. Chunki uni boshidan onasi yoqtirmagan. Ana o'sha payttan boshlab bolaning xulqida og'ishlar paydo bo'la boshlaydi. O'ziga ishonmaslik, o'zini ximoya qilaolmaslik, birovlariga bo'yin egish kabi salbiy xislatlar paydo bo'ladi.

E.Z.Usmonova rahbarligida B.B.Nurullayeva tomonidan "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tafakkurini modellashtirish" mavzusida ilmiy tadqiqot olib borilgan. B.B.Nurullayevaning tadqiqotida aniqlashicha, maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkurning modellashtiruvchi faolyati bu yosh davri uchun xos bo'lgan faoliyat bo'lib unda bolalarning intellektual imkoniyatlari to'liq namoyon bo'ladi. Bu yosh davrida tengdoshlari bilan muloqot tafakkurning modellashtiruvchi faolyatini o'zlashtirishning asosiy shartidir. Modellashtirish vazifalarini birgalikda hal qilish tashqi predmetli faolyatning ichki rejaga o'tishiga imkon tug'diradi. Bola tengdoshini modellashtirishga o'rgatib ushbu faolyatni egallashning sifat jihatdan yangi darajasiga o'tadi bolada o'zaro tasir qilish sheriklarning o'zaro rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Maktabgacha yosh davrida psixik funksiyalardan xotira juda yaxshi rivojlanadi. Tafakkur tasavvurlar orqali namoyon bo'la boshlaydi. Jamiyat tabiat va dunyoning tashqi ko'rinishi haqida dunyoqarashning kurtaklari shakillana boshlaydi. Bola tevarak atrofni tartiblashtirishga va tushunishga intiladi. Bola va kattalar orasidagi yangi munosabatlar kattalar obrazi bolaning xatti harakatlarini malum tomonga yo'llaydi bu esa bola shaxsi rivojlanishida barcha yangi psixologik tuzilmalarning paydo bo'lishida asos hisoblanadi. Maktabgacha tarbiya yoshi xulq atvor shaxsiy mexanizmlarining rivojlanishi, shaxsning dastlabki shakillanishi davridir. Bu yosh davrida motivatsion-ehtiyojlar sohasining rivojlanishi ro'y beradi.

Xulosa qilib aytganda ijtimoiy muxitning tasiri, bolalar o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirishda va ularni o'zlarini ifodalashda katta ro'lni o'ynaydi. Xulq atvorining rivojlanishiga olib kelish, bolalar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish va ijtimoiy muxitlarini rivojlantirishda katta ahamiyata ega bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning xulq atvoriga ijtimoiy muxitning tasiri katta. Ular o'z o'rtasida, oilasi bilan va o'qish muhitida suhbatlashish orqali qiziqarli xarakter va xulq-atvor shakillanmoqda. O'qishga oid darslar, o'yinlar, jamoatdagi tajribalar, yangi do'stlarni topish, bir-biriga yordam bermoq — bular hammasi bolalarning xulq-atvorini rivojlantirishga olib keladigan vositalar. O'zbekiston tarixida bularni oshirishga intiladigan o'quvchi, o'qituvchi, va oila muhitlari keng tarqalgan. Ijtimoiy muxit ham bolalarga xushbaho xulq-atvor va insonparvarlik tug'diradi.

REFERENCES

1. Ergashev M., Tojiyeva D "Yoshlar Bilan Ishlash Psixologiyasi" (2020)
2. Nishanova, Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya darslik / «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti TOSHKENT - 2018 247-258
3. Turmuxammedova Ozoda "Ong osti sirlari" Toshkent : Yangi asir avlodi, 2017. -64b 6-10

4. Social Psychology" - Robert A. Baron and Donn Byrne:
5. Conversation Secrets for Preschoolers" - Deborah Tannen
6. Turumbetova Z. PROBLEM OF PERIODIZATION IN DEVELOPMENTAL PSYCHOLOGY //Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2023. – Т. 4. – №. 6. – С. 323-330.
7. Turumbetova Z. Y., Xudaybergenova S. ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И ИГРЫ В ПРОЦЕССЕ РАЗВИТИЯ РЕБЕНКА //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 178-182.
8. Rustamxojaevna K. K., Yusupbayevna T. Z. ELECTRONIC AND DISTANCE LEARNING TECHNOLOGIES IN HIGHER EDUCATION //International Journal of Pedagogics. – 2023. – Т. 3. – №. 01. – С. 14-18.
9. Yusupbayevna T. Z. PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF AN INTEGRATED APPROACH TO ADVANCED FOREIGN EXPERIENCE IN EDUCATION //EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). – 2022. – Т. 8. – №. 6. – С. 26-29.
10. Turumbetova Z. Integrative approach to the system of higher education of foreign countries, economically developed in the Republic of Uzbekistan. – 2021.
11. Turumbetova Z. Y., Kaljanova U. M. MENTAL DEPRIVATION IN CHILDHOOD //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 862-866.
12. Turumbetova Z. Y., Ismailova X. X. AGGRESSIVE BEHAVIOR OF PRESCHOOL CHILDREN //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 934-937.